

**BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING
PSIXOLOGIK ASOSLARI*****JO'RAYEVA MUHSINA O'KTAMOVNA******MAMATQULOVA ZARNIGOR ESHMAMATOVNA******MAMATMO'MINOVA BAXTIGUL QAHRAMON QIZI******MIRZAYEVA SADOQAT ZAFARJON QIZI****Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Maktabgacha ta'lim yo'nalishi**1-bosqich talabalari*

Annotatsiya: *Quyidagi maqolada bolalarni maktabga fiziologik, psixologik va pedagogik tayyorgarligi va bolalarni maktabga tayyorlashda salomatlik va jismoniy rivojlanganlikning ahamiyati kabi ma'lumotlar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Psixika, bilish jarayonlar, psixologik tayyorgarlik, intellektual (aqliy) tayyorgarlik, ma'naviy xususiyatlar, irodaviy xususiyatlar, tayyorgarlik, rivojlanganlik darajasi*

Maktabning bola shaxsiga qo'yadigan asosiy talablaridan biri psixologik tayyorgarlikdir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeining o'zgarishi va kichik maktab yosh davridagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xosligi bilan uzviy bog'liq. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabga psixologik tayyorgarlik doimiy hisoblanmaydi, balki u doimo o'zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlari: intellektual (aqliy), ma'naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir. Aksariyat hollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so'z boyligi zahirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko'proq e'tibor beriladi. Ota-ona, hatto ayrim o'qituvchilar ham bola qanchalik ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb o'ylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo ma'lumotlar ummonida suzib yurgandek bo'lmoqdalar.



Bu esa ulardagi so'z boyliklarining keskin o'sishiga asos bo'lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanyapti, degan gap emas. Maktabda amal qilinayotgan o'quv dasturlarini o'zlashtirish boladan narsalarni taqqoslay bilish, tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo'lishini takozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda maktab amaliyotchi-psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, surovnomalar, asosan bolada yuqorida keltirib utilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga muljallangan metodikalardan iboratdir. 5-7 yosh bolaning maktabga intellektual (aqliiy) tayyorligining yana muhim ko'rsatkichlaridan biri bu ulardagi obrazli tafakkurning oliy darajada rivojlanganligidir. Bularga tayangan holda bola atrof-muhitdagi narsa- hodisalar o'rtasidagi eng muhim xususiyatlarni, munosabatlarni farqlay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu urinda bolalar chizmalari tasvirlarni shunchaki tushunibgina qolmay, balki ulardan muvaffaqiyatli foydalana oladigan bo'ladilar. Biroq ularning tafakkuri umumlashtirish xislatlariga ega bo'la borsa-da, predmetlar va ularning (tafakkuri) o'rnini bosuvchilar bilan aniq xatti-harakati obrazlilikiga qolaveradi.

Maktabgacha yosh davridayoq bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi bo'ladigan o'quv faoliyatiga tayyorlangan bo'lishi lozim. Bunda bolada ma'lum bir tegishli malakalarning shakllangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o'quv topshirigini ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Bunday jarayonlar birinchi sinf o'quvchilaridan topshiriqda o'zi belgilagan o'zgarish, yangilik alomatlarini kidirib topa bilish va ulardan hayratlanishni, qiziqishni talab qiladi. Bunday topshiriqlar amaliy ishlarga aylantirilsa yoki o'yin tarzida bajarilsa, osonroq kechadi va bola o'zlashtiradi.

Yuqorida to'xtalib o'tganimiz intellektual tayyorlik bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishi uchun yagona zamin emas. Agar bola zarur malaka va ko'nikmalar zaxirasiga ega bo'lsa, unda intellektual rivojlanganlik darajasi ham yuqori bo'lsa-yu o'quvchilikning ijtimoiy holatiga shaxsan tayyor bo'lmasa, maktabda o'qib



ketishi qiyin kechadi. Agar o'qituvchi yoki ota- ona uni o'qishga qiziqтира olmasalar, o'quv vazifalarini zo'rma-zo'raki, sifatsiz, qo'l uchida bajaradilar. Bundaylarda zarur natijalarga erishish qiyin bo'ladi. Eng yomoni, bu yoshda maktabga borishni xohlamaydigan bolalar ham uchrab turadi. 5-7 yoshli bolaning maktabga borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoning oqibati hisoblanadi. Ayrim ota-onalarda maktabgacha yosh davridagi bolani maktab bilan qo'rqitish hollari ham kuzatiladi. *"Ikkita gapni eplab gapira olmasang, maktabda qanday o'qiysan?"*, *"Sanashni bilmaysan-u, maktabga qanday borasan?"*, *"Maktabga borsang, o'rtoqlaring bu qilig'ingdan kulishadi!"* *"Hech narsani bilmaysan, maktabga borsang bizni uyaltirasan!"* kabi ta'na-dashnomlar bolada maktabdan qo'rqish, undan xavfsirashning shakllanishiga asos bo'lishi mumkin.

Shunday qo'rquv bilan maktabga borgan bolalarning maktabga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, ularda o'ziga nisbatan ishonch uyg'otish uchun haddan ziyod kuch, vaqt, mehnat, sabr-toqat, chidam, e'tibor zarur bo'ladi. Bu esa bolada oldindan maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaraganda, shubhasiz, murakkab jarayondir. Bolani birinchi sinfda o'qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning sababi kattalarning bola bilan bo'ladigan muloqotlari shakli u yoki bu vaziyatga bog'liq bo'lmagan holda, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday muloqot bolaning kattalar e'tiboriga va hamdardligiga bo'lgan ehtiyoj va ehtiyojlarning kattalar tomonidan qondirilishi bilan xarakterlanadi. Muloqotning bu shakliga erishgan bolalar uchun kattalarga e'tibor, ular murojatini tinglash va tushunishga intilish va kattalar tomonidan ham ularga nisbatan shunday e'tibor ko'rsatilishiga bo'lgan ishonch xosdir. Bunday bolalar kattalarning turli vaziyatlarda (ko chada, uyda, mehmonda, ishxonada) o'zlarini qanday tutishlarini farqlay oladilar. Kattalarning bunday xulqni anglash evaziga bolalar ham kattalarga, o'qituvchilarga, shu vaziyatga mos ravishda munosabatlarni namoyon qiladi. Agar bolada kattalarga nisbatan bunday munosabatlar shakllanmagan bo'lsa, unga mos ravishda kattalarga nisbatan ham tegishli munosabat yuzaga kelmaydi, bu esa, albatta, bola bilan olib boriladigan ta'lim jarayonini murakkablashtiradi.

Ota-onalar har bir bola ruhiy rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega



ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bo'lishini yodda tutishlari lozim. Ba'zi bolalar endigina birinchi so'zlarni o'zlashtirganlarida ularning tengqurlari allaqachon ma'lum bir iboralar bilan gaplasha oladigan bo'ladilar. Ta'lim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bo'lishi ma'lum darajada nasliy omillar bilan ham bog'liq dir. Bolalar o'z temperament xususiyatlariga ko'ra ham bir-birlaridan ajralib turadilar:

Xushchaqchaq, sergap, quvnoq, hayotning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar - *sangvinik* temperamentga mansub bo'ladilar. Ko'pincha noxush kayfiyatda yuradigan, ta'sirchan, kamgap, sust bolalar - *melanxolik* temperamentga kiradilar. Xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar - *flegmatiklardir*. Jahldor, betoqat, serzarda, harakatchan bolalar - *xolerik* hisoblanadilar. Bolalar kattalarning yordamiga muhtoj bo'lishiga qarab ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bolalar biror xatti-harakatni bajarishni bir necha marta ko'rsatish, tushuntirish, ketidan ergashtirish kerak. Boshqa bolalarga esa bajariladigan ish bir marotaba ko'rsatilsa yetarli bo'ladi. Shunday bolalar ham borki, ular berilgan vazifani mustaqil bajaradilar. Bolalar o'zlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir-birlaridan ajralib turadilar. Ba'zi bolalar ko'p savol beradilar va harakatchan bo'ladilar, ba'zi bolalarni esa hech narsa qiziqitirmaydi. Ota-onalar bolalaridagi o'ziga xosliklarni qanchalik chuqur bilsalar, ularga o'rgatishni muvaffaqiyatli tashkil qila oladilar. Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi keng va mukammal bo'lib rivojlangan bo'lishi darkor. Bolalarga qanchalik yaxshi bilim bersak, oylaymanki ular kelajakda Vatanga sadoqat ruhida, yetuk inson bo'lib etishadilar. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his-tuygularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo'llasa, yaxshi xulq namunalarini o'rgatish ancha oson kechadi.

O'qish uchun bolalar anchagina jismoniy va aqliy kuch sarflashlari kerak. Shuning uchun ota-ona bola maktabga borguniga qadar uning to'g'ri jismoniy rivojlanishi va sog'lom bo'lib o'sishi g'amxo'rlik qilishi juda muhimdir. Bola hayotining rejimi. Odatda, sog'lom bola kasalmand va zaif bolaga nisbatan maktab rejimiga va butun dars davomida o'zida jush urib turgan gayratlarini tiyib jim



utirishga tezroq ko'nikadi. Har bir bola aniq kun tartibiga ongli ravishda rioya qilishiga bog'liq. Bolani maktab rejimiga tayyorlashda, uning sogligini mustahkamlashda ertalab ma'lum vaqtda o'rindan turish, ovqatlanish va uyquga yotishga aniq rioya qilinishi kerak. Har bir oila mehnat faoliyatining xarakteri, maishiy sharoiti, bolalarning soni va shu kabilarga o'z yashash tartibini o'rnatadi. Biroq siz bir narsani, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolaning nonushtasi va tushligi o'rtasidagi oraliq 4 soatdan oshmasligini, tushlik va kechki ovqat o'rtasidagi oraliq - bir oz kattaroq (6-7 soat), buning orasida yengil ovqatlanish kechki choy bo'lishi kerakligini unutmasligingiz kerak. Bolaning bir sutkadagi uyquasi taxminan 11 soatni tashkil qilishi kerak. Bola tushlikdan so'ng 1-1,5 soat dam olishga odatlansin. Kechqurun u doimo bir vaqtda, ya'ni 9 dan kechikmay uxlagani yotsin. Bola miriqib uxlasin desangiz, quyidagi qoidalarga rioya qiling:

- bola uxlaydigan xonani yaxshilab shamollating;
- bolani uxlashga yotishdan oldin tishini tozalashga, yuz-qo'li, buyni, oyogini yuvishga odatlantiring;
- bolaga o'rinda nonushta qilishga aslo yo'l qo'ymang;
- bolaning me'yoriy rivojlanishi uchun u toza havoda ko'p harakat qilishi kerak. Tengdoshlari bilan chopsin, sakrasin, narsalarga tirmashib chiqsin. Bola ochiq havoda kish oylarida 4 soatdan kam bo'lmasin, yozda esa deyarli butun kunini ochiq havoda o'tkazsin. Bolaga kun bo'yi tinim bilmay lakillab yurishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, bunday ortiqcha o'ynoqilikdan bola maktabning talabchan intizomiga ko'nikishi qiyin bo'ladi. Harakatli o'yinlarning tinch faoliyatlar bilan almashinib turishini kuzatib borish zarur. Bolaning kundalik rejimga amal qilishi uchun asosan, qat'iy nazorat lozim. Bola kundalik rejimni bajarish majburiyligiga va hech qanday gap, iltimoslar, ma'lum vaqtda ovqatlanmaslik hamda o'ynamaslikka sabab bo'la olmasligiga ko'nikishi kerak. Shu bilan birga rejimning zarurligi va uning foydasini doimo tushuntirib borish lozim. Masalan: *"Ertalabki badantarbiya mashqlarini yaxshi bajarding, endi kun bo'yi tetik yurasan"*, *"Barakalla, gullarni tozalab yaxshi qilibsan. Menga ancha yordaming tegdi"*, *"O'z vaqtida ovqatlansang, tez o'sasan hamda, kasalga chalinmaysan"* va shu kabilar. Rejimning qimmati bola faoliyatining



har xil turlarining almashinib turishini ta'minlashdir, bu esa yosh, o'suvchi organizmni charchashdan saqlaydi, bolaning har tomonlama kamol topishiga imkon beradi. Masalan, bola rasm solishga qiziqib ketib, stoldan 40 daqiqa davomida turmadi, lekin u faol harakat qilishi, ya'ni o'ynashi, chopishi kerak.

Shuning uchun u o'ynab bo'lganidan keyingina unga tinch o'yin yoki mashg'ulotni tavsiya qilish mumkin. Agarda ish shu yusinda ketsa, bola shunday tartibga rioya qilsa, u qay darajada bo'lmasin asta-sekin o'z faoliyatini boshqarishga odatlanadi, bu uni kundalik va maktab rejimining asosiy qoidalariga osongina ko'nikishida katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hasanboyeva.O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - Toshkent: Ilm ziyo, 2006.
2. Mavrulov A. Ma'anaviy barkamol inson tarbiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2008.
3. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. - Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
4. Кодирова Ф., Тошпулатова Ш., Аъзамова М. Мактабгача педагогика. - Тошкент: "Маънавият", 2013.
5. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA O'YINCHOQLARNING TA'SIRI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 172-179.
6. Шомуротов, У. (2023). ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ АРТ-ТЕРАПИИ В УСТРАНЕНИИ ЛИЧНОСТИ АГРЕССИИ. *Предпринимательства и педагогика*, 6(3), 178-181.
7. Шомуротов, У. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ АРТ-ТЕРАПИИ В УСТРАНЕНИИ ЛИЧНОСТИ АГРЕССИИ. *Предпринимательства и педагогика*, 5(2), 91-95.
8. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, O. R. Z. S., & QIZI, Q. K. A. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK



VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.

9. Abdukarimovich, T. Y. L., Melikboboyevich, S. U., & Isokovich, U. F. (2024). Xotira haqidagi qarashlar va xotirani rivojlantirish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 109-117.

10. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI, 1(2), 93-103.

11. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O 'YIN FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI. BOLA HAYOTIDA O 'YINNING AHAMIYATI. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI, 1(2), 85-92.